

FRAZEOLOGIZMLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili o'qitish metodikasi

Tarjimashunoslik fakulteti arab

tili yo'nalishi 101-guruh talabasi

Nurmatova Shabona Mo'ydinjon qizi

Telefon: + 998911616067

Ilmiy maslahatchi: Kabulova

Umida

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari, ularning ma'no yaxlitligi, ko'chma mazmuni va tarkibiy barqarorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning nutqdagi uslubiy vazifasi hamda xalqning madaniy-tarixiy dunyoqarashini ifodalashdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Maqolada turli nazariy qarashlar solishtirilib, frazeologizmlarning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: *frazeologizmlar, frazeologiya, stilistika, semantika, frazeologik birliklar*

Annotation: This article examines the fundamental characteristics of phraseological units, focusing on their semantic integrity, figurative meaning, and structural stability. It also highlights the stylistic functions of phraseologisms in speech and their role in reflecting the cultural and historical worldview of a linguistic community. Various theoretical approaches are compared, and the significance of phraseology in modern linguistics is discussed.

Key words: *phraseologisms, phraseology, stylistics, semantics, phraseological units.*

Аннотация: В данной статье анализируются основные свойства фразеологических единиц, такие как семантическая цельность, переносное значение и структурная устойчивость. Особое внимание уделяется стилистическим функциям фразеологизмов в речи и их роли в отражении культурно-исторического мировоззрения народа. В работе сопоставляются различные теоретические подходы и раскрывается значение фразеологии в современном языкознании.

Ключевые слова: *фразеологизмы, фразеология, стилистика, семантика.*

Tilshunoslikda frazeologiya atamasi Sharl Balli tamonidan ishlatilib, stilistika fani bilan qo'shib o'rganilgan, lekin frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini bildirgan taniqli tilshunos olim prof. E.F.Polivonovdir. Shu fikrni qullab quvvatlagan olimlardan yana biri mashhur tilshunos olim V.V.Vinogradovdir. U o'zining qator ilmiy tadqiqotlarida rus tilidagi frazeologik birikmalar ta'limotlarni yig'adi va ularni semantik jihatdan guruhlariga bo'lib chiqadi. E.D.Polivanov va V.V.Vinogradovlar tomonidan o'rta tashlangan frazeologiya haqidagi fikrlar keyinchalik bu sohada ko'plab tadqiqotlarning yuzaga chiqishiga turtki bo'ldi. Lekin hozirga qadar frazeologiyani fan sifatida qarash yoki qaramaslik haqidagi fikrlar o'z yechimini to'laligicha topgan emas. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va turg'un iboralar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) orasidagi bir qancha farqlarga qarab bir qancha olimlar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda izohlaydilar. Uni keng ma'noda anglaganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya ichiga maqol va matallar, xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan iboralar, bir qancha so'zlashuv shakillarini (salomlashish, xayrlashish iboralarini) ham kiritishadi. Ammo frazeologiyani keng ko'lamda tushunish masalasi haligacha ham o'z yechimini topgani yo'q desak aslo mubolag'a bo'lmaydi¹.

O'zbek tilining frazeologik boyligini o'rganishga bag'ishlangan mukammal tadqiqotlarga egamiz. Adabiy til lug'at tarkibining taraqqiyoti va boyishi xalq shevalari

¹ Maqsudova Sh. Innovations in Science and Technologies elektron-ilmiy jurnali, 5-son. 378-bet \ \ www.innoist.uz

bilan uzviy va chambarchas bo'g'liqdir. Adabiy til normalarini belgilashda xalq shevalarining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga suyanadi va ma'lum o'ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlanadi. Shunday ekan milliy tilning xalq shevalaridagi ko'chma ma'noli iboralarni o'rganish ham hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotining, uning boyib borish yo'llarini belgilovchi omillardan biri bo'ladi. O'tgan asrning 50-yillarigacha frazeologiya hali o'zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanib yetmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zgatashlanadi. Bunday ishlar A.G'ulomov, U.Tursunov, V.Abdullayev, H.Zarif, N.Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansubdir. Jumladan, A.Sa'diy, V.Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning A.Navoiy asarlarida turg'un birikmalar, xalq iboralarining qo'llanilishiga oid fikrlari hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda².

Frazeologizmlarning ta'rifi masalasi tilshunoslikda hali ham ochiq masala bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi: Birinchidan, frazeologizmlarning yagona, umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Turli mualliflar va maktablar o'ziga xos ta'riflar taklif etishgan, biroq ularning hech biriga universal maqom berilmagan. Ikkinchidan, barcha ta'riflarda uchraydigan umumiy xususiyat - semantik kompozitsional emaslik - frazeologiya nazariyasining asosini tashkil etadi. Bu xususiyat frazeologizmlarni boshqa til birliklaridan ajratib turadigan asosiy mezon hisoblanadi. Uchinchidan, lug'at va ilmiy ta'riflar o'rtasida sezilarli yondashuv farqi mavjud. Leksikografik ta'riflar amaliy maqsadlarga xizmat qilsa, nazariy ishlar chuqur lingvistik tahlilga intiladi. To'rtinchidan, frazeologizmlar tilning murakkab hodisasi bo'lib, turli tilshunoslik sohalarining - semantika, sintaksis, pragmatika, madaniy lingvistika - kesishmasida joylashgan. Bu murakkablik ularni o'rganishda kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqot frazeologiya

² Safiyazova N. Iqro Jurnali. – Toshkent, 196-bet.

nazariyasining hozirgi holatini sistemali baholash imkonini berdi. Ta'riflar tahlili frazeologizmlarning asosiy xususiyatlarini aniqlash va ularni ierarxik tartibda joylashtirish uchun asos yaratdi. Bundan tashqari, turli tilshunoslik maktablarining frazeologiyaga qo'shgan hissasini baholash mumkin bo'ldi. Tadqiqot natijalari frazeologik lug'atlar tuzish, til o'qitish va tarjima ishlarida qo'llanilishi mumkin. Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlarini aniq belgilash orqali ularni tanib olish va talqin qilish jarayonlarini yaxshilash imkoniyati paydo bo'ladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, frazeologizmlarning quyidagi xususiyatlari eng ko'p ta'kidlangan³:

1. Semantik kompozitsional emaslik - 17 ta manbada (100%)
2. Strukturaviy qat'iylik - 14 ta manbada (82%)
3. An'anaviy xususiyat - 12 ta manbada (71%)
4. Kontekstual bog'liqlik - 9 ta manbada (53%)
5. Leksikal cheklanganlik - 7 ta manbada (41%)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha ta'riflarda frazeologizmlarning semantik kompozitsional emasligi asosiy xususiyat sifatida ta'kidlanadi. Bu degani, frazeologizmning umumiy ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nolari yig'indisiga teng emas. Masalan, *“tomdan tarasha tushganday”* iborasining ma'nosi (*“to'satdan”*) uning tarkibidagi *“tom”*, *“tarasha”* va *“tushmoq”* so'zlarining individual ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Semantik kompozitsional emaslikning bu xususiyati frazeologizmlarni oddiy so'z birikmalaridan ajratib turadigan asosiy mezon hisoblanadi. Biroq, bu mezonning o'zi ham turli darajalarni o'z ichiga oladi. Vinograd va Shanskiyning tasnifiga ko'ra, frazeologik srasheniyalarda (idiomalar) bu xususiyat mutlaq darajada namoyon bo'lsa, frazeologik birikmalarda nisbiy ko'rinishda kuzatiladi. Lug'atlar odatda qisqaroq va amaliy yo'naltirilgan ta'riflar beradi, ixtisoslashgan tilshunoslik ishlari esa yanada chuqur nazariy yondashuvlarni taklif

³ <https://www.oriens.uz>.

etadi. Bu farq lugʻatlarning amaliy maqsadlari bilan bogʻliq. Leksikografik taʼriflar tildan foydalanuvchilar uchun aniq va tushunarli boʻlishni maqsad qiladi, nazariy ishlar esa hodisaning lingvistik mohiyatini ochib berishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maqsudova Sh. Innovations in Science and Technologies elektron-ilmiy jurnali, 5-son. 378-bet \ \ www.innoist.uz.
2. Safiyazova N. Iqro Jurnali. – Toshkent, 196-bet.
3. <https://www.oriens.uz>.